

ANDIJON VILOYATINING OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARI SHAROITIDA O‘RTA TOLALI G‘O‘ZA NAVLARIDA DEFOLIANTLARINING SAMARADORLIGI**Abdurashidova Shaxnoza Akramjonovna***Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistri***Teshabayeb Sherzotbek Alijanovich***q.x.f.f.d (PhD)**Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti**E-mail: marxabo_rasulova@mail.ru*

Annotatsiya. *Maqolada Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi Agro klaster xo‘jaligining dalalarida parvarishlangan An 402 g‘o‘za navida UzDEF-K hamda Avguron-ekstra defoliantlarini turli me‘yorlarda qo‘llab, ularning maqbul qo‘llash me‘yorlarini belgilab berish, paxtachilikda g‘o‘za defoliatsiyasi agrotadbirini o‘z vaqtida sifatli o‘tkazish, ushbu defoliantlardan samarali foydalanishda turli omillarga bog‘liqligini xaqida ma‘lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *G‘o‘za, defoliant UzDEF-K, Avguron ekstra, me‘yori, muddati, o‘shish, rivojlanish, hosildorlik, samaradorlik.*

Аннотация. *В статье обоснована поддержка дефолиантов УзДЕФ-К и Августон-экстра в разных нормах, определение рекомендаций по приемке в хлопководстве сорта Ан 402, возделываемого на полях агрокластерного хозяйства Алтынкольского района Андижанской области. Дана информация о своевременном и качественном проведении агротехнических мероприятий по дефолиации хлопка, эффективном использовании этих дефолиантов различными способами.*

Ключевые слова: *Хлопок, дефолиант УзДЕФ-К, Августон экстра, скорость, продолжительность, рост, развитие, урожайность, эффективность.*

Annotation. *The article substantiates the support of the defoliant UzDEF-K and Avguron-extra in different norms, the definition of recommendations for the acceptance in cotton growing of the An 402 variety cultivated in the fields of the agro-cluster farm of the Altynkol district of the Andijan region. Information is given on the timely and high-quality implementation of agrotechnical measures for cotton defoliation, the effective use of these defoliant in various ways.*

Key words: *Cotton, defoliant UzDEF-K, Auguston extra, rate, duration, growth, development, productivity, efficiency.*

Kirish. Respublikamiz qishloq xo‘jaligida paxtachilik eng muhim sohalardan biri bo‘lib, hozirgi kunda bu sohani rivojlantirishda mutaxassislar va olimlar tomonidan ko‘pgina ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. G‘o‘za agrotetexniksida kultivatsiya, sug‘orish, o‘g‘it berish, chilpishga muhim e‘tibor beriladi. Chunki bu

tadbirlar yaxshi va o'z vaqtida o'tkazilmasa, hosil elementlarini to'kilishiga olib keladi. G'ozani bo'yiga o'sishini to'xtatish, hosil elementlarini saqlab qolish, ertaki va yuqori hosil yetishtirish maqsadida bir qancha olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirgi kunda ham bu borada ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Keyingi yillarda Respublikamiz paxtachiligida g'oz defoliatsiyasi agrotadbirini sifatli o'tkazish uchun ko'plab defoliantlar yaratilmoqda. Ushbu defoliantlardan samarali foydalanishda turli omillarga bog'liqligini o'rganish zarur. Bularga sug'orish, oziqlantirish tartiblari va har xil ko'chat qalinliklari muhim hisoblanadi.

Tadqiqotni bajarish sharoiti va usubiyati. Ilmiy tadqiqot ishlari 2022 yilda Andijon viloyati Oltinko'l tumanidagi Agro klaster xo'jaligining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Paxta maydonlaridagi tolaning sifat ko'rsatkichlarini oshirish va hosilini qisqa muddatlarda nest-nobud qilmasdan yig'ishtirib olishda defoliatsiya tadbirining o'rni muhimdir. Defoliantlarini turli me'yorlarda qo'llab, ularning maqbul qo'llash me'yorlarini belgilab berish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Andijon viloyati Oltinko'l tumanidagi Agro klaster xo'jaligining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida ekilayotgan o'rta tolali g'oz navlari bargini to'ktirishda, UzDEF-K va Avguron ekstra defoliantlarini maqbul qo'llash me'yor va muddatlarini ishlab chiqib, ularning g'ozadagi samaradorligini aniqlash hamda ishlab chiqarishga tavsiya berishdan iborat.

Ilmiy izlanishlar O'zPITI da qabul qilingan «Metodika polevyyx opytov s xlochatnikom» (1981). «G'oz defoliantlarini sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar» (1993, 1994, 2004) va —Dala tajribalarini o'tkazish uslublaril (2007) qo'llanmalari asosida olib borildi. Hosildorlik bo'yicha olingan ma'lumotlarga B.Dospexovning «Metodika polevogo opyta» (1979- 1985 yy) qo'llanmasi asosida dispersion tahlil qilindi. Tajriba 6 ta variant bo'yicha 4 ta takrorlashda o'tkazildi. Tajriba maydoniga G'ozaning An 402 navi ekildi.

G'oz defoliatsiyasi ko'saklarning erta yetilib, barvaqt ochilishini ta'minlash maqsadida g'oz bargini defoliantlar yordamida sun'iy to'ktirishdan iborat agrotexnik tadbir hisoblanadi. G'oz defoliatsiyasini o'tkazishda UzDEF-K va Avguron-ekstra defoliantlari qo'llanildi.

G'oz defoliatsiyasini o'tkazishda har bir defoliant bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarga rioya etish talab etiladi. G'oz defoliatsiyasi o'tkazilishi lozim bo'lgan dalani tanlashda hamda defoliatsiya o'tkazishning aniq muddatini belgilashda havo harorati, tuproqning namligi, g'ozaning biologik yetilganligiga (shu jumladan ko'saklarning ochilganligiga), paxta paykallarini chekanka qilish (chilpish) o'tkazilgan muddatlarga asoslaniladi. Havoning harorati hamda g'ozaning biologik yetilganligi darajasiga qarab defoliatsiyaning maqbul muddati 25 avgustdan 20 sentyabrgacha belgilanadi.

Defoliatsiya paytida tuproqning namligi cheklangan dala namligi sig'imi (ChDNS)ga nisbatan 60-70% atrofida bo'lishi lozim. G'ozaning biologik yetilganligi bo'yicha o'rta tolali g'ozaning navlarining har bir tupida o'rtacha 50-55 foiz, ingichka tolali g'ozaning navlarida 60-65 foiz ko'saklar ochilganda defoliatsiya o'tkazish lozim. Paxta paykallarida chekanka (chilpish) o'tkazilgan muddatiga ko'ra g'ozaning tupining eng yuqoridagi ikkinchi ko'sagi kesilganda uni kesilishi qiyin bo'lsa va chigiti qoraygan bo'lsa defoliatsiyani boshlash maqsadga muvofiq. Qo'llaniladigan defoliantlar me'yorlarini aniqlashda g'ozaning g'ovlanishi, havo harorati va g'ozaning navlarining morfologik xususiyatlaridan kelib chiqiladi.

Tajriba maydonida UzDEF defoliantining turli (5,0-6,0-7,0 l/ga) me'yorlari Avguron-ekstra defoliantiga qiyoslab o'rganildi. Olib borilgan dala tajribalari natijalariga qaraganda, UzDEF defoliantini Avguron-ekstra defoliantiga nisbatan, g'ozaning barglariga sekin ta'sir etishi, barglar qovjirasidan och yashil yarim qurigan holatida to'kilishi kuzatildi.

Tajriba maydonlarida defoliatsiyadan 14 kun o'tgach Avguron-ekstra 8 l/ga qo'llanilgan variantda qurigan barglar 15,3%, yarim qurigan barglar 9,6%, to'kilgan barglar esa 75,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, UzDEF defoliantini 5,0-6,0-7,0 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda to'kilgan barglar 74,8-76,3-79,7 foizni tashkil etdi. Shunga mos ravishda tupida qurigan barglar 10,2-12,3-11,1%, yarim qurigan barglar esa 10,4-9,2-7,9 foizni tashkil etdi. Ushbu tajribada yana shuni aytish joizki, nazoratga nisbatan ko'saklarning ochilishi Avguron-ekstra defoliantini qo'llanilgan variantda 14,2 foizga, UzDEF defoliantini qo'llanilgan variantlarda esa 5,0-6,0-7,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda 11,8-15,4-16,5 foizga yuqori bo'ldi. UzDEF defoliantini 5,0-6,0-7,0 l/ga qo'llanganda Avguron-ekstraga nisbatan 6-7-variantlarda 1,5-2,6 foizgacha ko'saklar ochilishi ko'proq bo'lganligi kuzatildi. Eng asosiysi, UzDEF defoliantini yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'ozaning barglarini och yashil holda paxta tolasiga yopishib qolmasdan to'kilganligi va ko'saklarni kuydirmasdan, ochilishiga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Ushbu defoliant qo'llanilgan variantlarda ko'saklarning ochilishi yuqori bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, tajriba maydonlarida paxta xomashyosini tez va qisqa kunlar ichida terib olish maqsadida, UzDEF defoliantini gektariga 7,0 litrdan qo'llash yaxshi samara beradi. Ko'chat qalinligi kamroq, havo harorati issiqroq kelganda defoliantlarni gektariga 6,0 litrdan qo'llash ham mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Teshayev Sh., Sindarov O. Defoliatsiya – muhim tadbir // “O'zbekiston qishloq xo'jaligi” jurnali. – Toshkent, 2011. – №8. – B. 7-8.
2. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. – Toshkent, UzPITI, 2007.

4. Teshaev Sh.J. Respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitlarida yangi rayonlashgan va istiqbolli g'oz navlarida defoliantlarni qo'llash samaradorligining ilmiy asoslari. Dok. dis. ishi., Toshkent 2008.

5. Application of harmonized fighting system against pomegranate orchard. S.A. Mirzaeva, M.X. Kambarova, MU Irgashev, MB Rasulova. Indonesian Journal of Innovation Studies 8.